

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOV ZUXRITDIN XOLBOYEVICH

**FERROTSENKARBON KISLOTA ASOSIDA YANGI TOVARLAR OLISH
VA ULARNI SINFLASH**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abduraimov Zuxritdin Xolboyevich

Ferrotsenkarbon kislota asosida yangi tovarlar olish va ularni
sinflash..... 3

Абдураимов Зухритдин Холбоевич

Получение новых товаров на основе ферроценкарбоновой кислоты и их
классификация 21

Abduraimov Zukhritdin Kholboyevich

Obtaining new goods based on ferrosencarbonic acid and their classification
..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAIMOV ZUXRITDIN XOLBOYEVICH

**FERROTSENKARBON KISLOTA ASOSIDA YANGI TOVARLAR OLISH
VA ULARNI SINFLASH**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/K610 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Asqarov Ibrohim Rahmonovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Axmadaliyev Maxamadjon Axmadaliyevich**
Texnika fanlari doktori, professor
Xamroqulov Maxmudjon G'ofurjonovich
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "06" soat 10³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: abduraimov_zuxritdin1984@mail.ru

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "IV" kuni tarqatildi.
(2023 yil IV. 17 dagi № 16 raqamli reestr-bayonnomasi).



X.Isaqov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, tex.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d.

Sh.V.Abdullaev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadigan kimyoviy birikmalarni sintez qilish, ularning ta‘sir doiralarini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda. Bu borada, qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish xususiyatiga ega bo‘lgan, tarkibida temir saqlagan biologik faol va ekologik toza biostimulyator ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan, tarkibida ferrotsen saqlagan yangi biologik faol moddalarni sintez qilish, ularni amaliyotga tadbiiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda o‘simliklarni kompleks rivojlanishini ta‘minlovchi tarkibida ferrotsen va glitsirrizin kislota saqlagan biologik faol moddalar sintez qilish borasidagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, o‘simlik va parrandalarning o‘sishi, kompleks rivojlanishini kuchaytiruvchi biostimulyator xususiyatga ega bo‘lgan ferrotsenbenzoy kislotalar, ferrotsenkarbon kislotalar, ularning tuzlarini sintez qilish, tarkibi va tuzilishini, biologik faoligini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Shuning uchun ham, tarkibida katalitik ta‘sirni kuchaytiruvchi aromatik benzol va siklopentadiyenil xalqalari tutgan, ferrotsenning oksi- va karboksifenil o‘rinbosarlari saqlagan ferrotsen birikmalarini sintez qilish, ularni kimyoviy tarkibi va tuzilishini, biologik faoligini aniqlash, hamda kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha sinflash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qo‘llaniladigan yangi turdagi biostimulyatorlar sintez qilish, ularni ishlab chiqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish borasida maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlarini kompleks rivojlantiradigan, hosildorligini oshiradigan, ekologik toza, zararsiz biostimulyatorlarni sintez qilish, shuningdek ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarni aniqlash, hamda amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 12 apreldagi “O‘z kimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2884-son, 2018 yil 25 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3983-son Qarori, 2019 yil 3 apreldagi “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4265-son qarori, 2019 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini taminlashga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ferrotsen dastlab Poson va Kili tomonidan 1951 yilda sintez qilingan. Ferrotsenga xos boʻlgan noyob fizik-kimyoviy xossalar keyinchalik olimlarni oʻziga jalb etib, AQSH, Angliya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarda chuqur izlanishlar olib borildi.

Rossiyaning Elementoorganik birikmalar kimyosi ilmiy tadqiqot institutida (INEOS) A.N.Nesmeyanov, V.A.Sazonova, N.S.Kochetkova, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida E.G.Perevalova, M.D.Reshetova, AQSHda R.Vudvord, D.Uayting, Angliyada D.Uilkinson, Germaniyada G.Shmitt, S.Ozman, E.Fisher, S.A.Shlyogl, Yugoslaviyada M.Lakan, V.Rapis, Yaponiyada T. Kondo, Italiyada S.Kalur, S.Toma kabi olimlar ferrotsenning turli hosilalarini sintez qildilar.

Oʻzbekistonda ferrotsen kimyosi boʻyicha kimyo fanlari doktori, professor A.G.Maxsumov, kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov shogirdlari kimyo fanlari doktori, professor Sh.M.Qirgʻizov, kimyo fanlari doktorlari M.M.Xojimatov, O.Sh.Abdulloev, M.M.Moʻminjonov, Yu.X.Xolboev, kimyo fanlari nomzodi A.M.Joʻraev, kimyo fanlari boʻyicha falsafa doktorlari Q.Q.Otaxonov, N.Q.Toʻlakovlar tomonidan diqqatga sazovor bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ferrotsen va ferrotsenkarbon kislotaning suvda eruvchan va aromatik hosilalari sintezi asosida olingan biologik faol moddalar haqidagi maʼlumotlar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, ammo tarkibida ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari saqlovchi birikmalar va ularning suvda eruvchan hosilalari sintezi nisbatan kam oʻrganilgan boʻlib, ular kimyoviy tarkibi boʻyicha tovarlar nomenklaturasida sinflarga ajratilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida suvda eruvchan birikmalar sintezini amalga oshirish, xossalarini fizik-kimyoviy usullar yordamida oʻrganish, olingan birikmalarni biostimulyator xossalari tadqiq etilgan holda kimyoviy tarkibi asosida sinflashni, TIF TN boʻyicha tegishli kod raqamlari berish, ularni amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yoʻnaltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti “Xalq xoʻjaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” ilmiy tadqiqot yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ferrotsenkarbon kislotaning mochevinali hosilalari asosida yangi tovarlar olish, ularni biostimulyatorlik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash hamda ularga TIF TN asosida yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari (tiomochevina, metilolmochevina, dimetilolmochevina) ni diazotirlash reaksiyasi asosida yangi biologik faol birikmalarni sintez qilish;

ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida sintez qilingan yangi birikmalarni suvda eruvchan hosilalarini olish;

sintez qilingan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishini aniqlash;

sintez qilingan birikmalar orasidan biologik faolligi yuqori boʻlganlarini aniqlash hamda biologik faolligi isbotlangan birikmalarni laboratoriya va dala amaliyoti sinovlaridan oʻtkazish;

ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida sintez qilingan birikmalarning suvda eruvchan hosilalarini kimyoviy tarkibiga asoslangan holda TIF TN boʻyicha yangi kod raqamlari ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida ferrotsenkarbon kislota, mochevina va uning ayrim hosilalari, Andijon-35 va Andijon-36 gʻoza navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida yangi tovarlar olish va ularni kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida preparativ sintez, kimyoviy va fizik-kimyoviy analiz, xromatografiya, IQ-spektroskopiya va mass-spektrometriya hamda biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari bilan diazotirlash reaksiyasi asosida 1ʻ-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamid, Nʻ-metilol-N (1ʻ-karboksi)-ferrotsenilkarboksamid, 1ʻ-karboksiferrotseniltiokarboksamid kabi moddalar sintez qilingan;

sintez qilingan birikmalarni suvda eruvchan hosilalarini olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

tarkibida ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari saqlovchi biologik faol moddalarni kimyoviy tarkibi, tuzilishi va ayrim fizikaviy, kimyoviy xossalari aniqlangan;

sintez qilingan birikmalarning suvda eruvchan hosilalari asosida yangi biologik faol moddalar sintez qilingan;

suvda eruvchan tarkibida ferrotsen va mochevina hosilalari saqlovchi yangi biologik faol moddalarning faolligini gʻoʻzani oʻsishi va rivojlanishi hamda hosildorligiga ijobiy taʼsiri isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gʻoʻza chigitining unish energiyasi, unuvchanligi va hosildorligini oshirishga yordam beruvchi “AsTA” biostimulyatori yaratilgan;

ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari saqlovchi biostimulyatorlar kimyoviy tarkibi asosida sinflangan hamda ularga TIF TN asosida tegishli kod raqami tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sintez qilingan moddalar yuqqa qatlamli va kolonkali xromatografiya usullari yordamida ajratib olinib, IQ-spektroskopik, mass-spektrometrik usullari asosida tarkibi va tuzilishi aniqlanganligi, ularning biologik faolliklari tasdiqlanganligi, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda eʼlon qilinganligi, amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ferrotsenkarbon kislotaning suvda eruvchan ayrim hosilalari sintez qilingan, diazotirlash reaksiyasi asosida 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilokarboksamid, N`-metilol-N (1`-karboksi) ferrotsenilkarboksamid, 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidlarning sintezi usuli taklif etilgan, sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy ko`rsatkichlari, ayrimlarining biologik faolligi tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sintez qilingan ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida qishloq xo`jaligi ekinlari uchun biostimulyator xossasiga ega yangi biologik faol birimlar olingan, ferrotsenkarbon kislotasining ayrim hosilalari uchun TIF TN bo`yicha tegishli kod raqamlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ferrotsenkarbon kislota asosida yangi tovarlar olish va ularni sinflash bo`yicha olingan natijalar asosida:

ferrotsenkarbon kislota asosida sintez qilingan "AsTA" biostimulyatorini qo`llash texnologiyasi Andijon viloyatida jami 215 gektardan ortiq g`o`za maydonlariga joriy etilgan (Qishloq xo`jaligi vazirligining 2022 yil 23 noyabrdagi №07/35-04/8725-son ma`lumotnomasi). Natijada, biostimulyator bilan ishlov berilgan g`o`za maydonlarida gektaridan o`rtacha 4,85 s qo`shimcha hosil olish imkonini bergan;

AsTA, biostimulyatori kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, "Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi" ga ferrotsenkarbon kislotasi va tiomochevina hosilalari asosida olingan biostimulyator" uchun 380893900 7 kod raqami bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O`zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo`mitasining 2022 yil 30 iyuldagi 16/05-22-0432-son ma`lumotnomasi). Natijada, ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida sintez qilingan birikmalarni suvda eruvchan hosilalarini kimyoviy tarkibi bo`yicha sinflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o`tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e`lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo`yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O`zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 3 ta respublika ilmiy jurnallarida va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o`tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo`nalishlariga mosligi ko`rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish,


nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ferrotsen, ferrotsenkarbon kislota, mochevina hosilalari, ferrotsenning biologik faol hosilalari. Tovarlar kimyosi (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobida ferrotsenkarbon kislota va uning hosilalarining ahamiyati, ferrotsenkarbon kislota hosilalari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, metilolmochevina va tiomochevina hosilalarini olinish usullari va ishlatilishi xorijiy va maxalliy adabiyotlar tahlili yoritib berilgan. O'zbekistonda yaratilgan “Tovarlar kimyosi” fani va uning istiqbollari. Tovarlar kimyosi fanining maqsad va vazifalari, uyg'unlashgan tizim, tovar, nomenklatura, sinflash hamda Tovarlar kimyoviy tarkibi asosida sinflashni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida yangi tovarlar olish va ularni sinflash (olingan natijalar muhokamasi)”** deb nomlangan ikkinchi bobida ferrotsenkarbon kislotaning monometilolmochevina, dimetilolmochevina, tiomochevina kabi moddalar bilan reaksiyasi natijasida yangi moddalar sintezi amalga oshirilgan, sintez qilingan birikmalarni fizik-kimyoviy hossalari, IQ-spektroskopik, mass-spektrometrik, kvant-kimyoviy hisoblash metodidan foydalangan holda analiz natijalari taxlillari yoritilgan. Sintez qilingan birikmalarni suvda eruvchan hosilalari olinib biologik faolligi laboratoriya va paxta maydonlarida o'tkazilgan dala amaliyoti sinovlari bo'yicha olingan natijalar muxokama qilingan.

1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamid sintezi. Ferrotsenkarbon kislota va uning bir qator aromatik va alifatik hosilalari sintez qilingan va ularning suvda eruvchan biologik faol mono va dialmashigan tuzlari olinganligi adabiyotlarda keltirilgan. Lekin ferrotsenkarbon kislota va monometilolmochevina asosida sintez qilingan birikmalar va ularning xossalari haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Ferrotsenkarbon kislotaning yangi biologik faol birikmalarini olish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirib ferrotsenkarbon kislota bilan monometilolmochevina asosida 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamid sintezini amalga oshirdik. Reaksiya diazotirlash metodi yordamida o'tkazildi. Reaksiya natijasida to'q sariq rangli kristall modda olindi. Reaksiya unumi ferrotsenkarbon kislotaga nisbatan 60 % ni tashkil etdi. $T_s=197^{\circ}\text{C}$.

Kvant-kimyoviy hisoblash metodidan foydalangan holda, ferrotsenkarbon kislota va monometilolmochevina orasidagi reaksiya mahsuloti (1) 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamidning tuzilishini energetik jihatdan asoslash uchun mumkin bo'lgan barcha izomerlarini optimallashtirilgan strukturalarini Hartri energiyalari (E_{Hart}) “Gaussian 98” dasturlar paketi DFT/B3LYP gibrid metodi 3-21G bazisini qo'llagan holda hisoblab topildi va ular orasidagi farqlar (ΔE) aniqlandi. Ferrotsenkarbon kislota va monometilol mochevina orasidagi reaksiya natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan izomerlarning optimallashtirilgan strukturalari quyidagi sxemada keltirilgan.




1'-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamidning mumkin bo'lgan 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 va 8 izomerlari modellari

1'-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilolkarboksamidning tuzilishini IQ-spektroskopik tadqiqi. Sintez qilingan moddani tuzilishini yanada aniqroq o'rganish maqsadida 10.6.1 versiyali Perkin Elmer IR Spectrum qurilmasi yordamida IQ spektri olindi va tahlil qilindi. IQ spektrning 1159 va 1030 sm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari geteroannulyar dialmashigan ferrotsenil guruhiga mansub, spektrning 914 sm^{-1} dagi yutilish chiziqlari ferrotsen qoldig'iga almashigan pentadienil xalqa borligidan, 2882 sm^{-1} dagi valent tebranish siklopentadienil xalqasidagi (C-H) bog'lari uchun, 1651 sm^{-1} dagi kuchli valent tebranish karboksil gurux mavjudligidan, 3630 sm^{-1} dagi yutilish chizig'i valent tebranishli OH, 3326 sm^{-1} da valent tebranish -NH-guruhlar mavjudligidan dalolat beradi. IQ-spektrdagi tajribada kuzatilgan yutilish cho'qqilari to'lqin soni qiymatlari molekuladagi tegishli tebranishlar uchun kvant-kimyoviy hisoblangan yutilish sohalari maksimum to'lqin soni qiymatlariga taqqoslandi. Tajribada o'lchangan IQ-spektrdagi yutilish sohalari cho'qqilarining to'lqin sonlari qiymatlari kvant-kimyoviy hisoblangan qiymatlarga mos kelishi ma'lum bo'ldi.

Olingan IQ -spektr ma'lumotlari Mass-spektrometriya tahlili natijalari bilan tasdiqlandi.


N'-metilol-N(1'-karboksi) ferrotsenilkarboksamid sintezi. Adabiyotlarda m-ferrotsenilbenzoy kislotaning dimetilolmochevina bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan 1'-(3-karboksifenil)-1-N-(ferrotsenilmetil)-N'-metiloksikarboksamidning sintez sharoitlari va moddaning fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Lekin, ferrotsenkarbon kislotaning dimetilolmochevina bilan hosil qilgan birikmalari va uning suvda eruvchan hosilalari o'rganilmagan. Shuning uchun biz ferrotsenkarbon kislotani dimetilolmochevina bilan reaksiyasi asosida yangi moddalar sintez qilishga erishdik. Sintez qilib olingan mahsulotning bo'lishi mumkin bo'lgan barcha izomerlarining strukturalari tuzildi. Reaksiya mahsuloti izomerlarining optimallashtirilgan strukturalarini Hartri energiyalari hisoblandi. Reaksiya natijasida olingan sariq rangli kristall modda organik erituvchilarda yaxshi suvda esa kam eriydi. T.s.=195°C. Empirik formulasi C₁₄H₁₆O₄N₂Fe. Nomi: N'-metilol-N(1'-karboksi) ferrotsenilkarboksamid.

Reaksiya sxemasi quyidagicha:



Reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar yupqa qatlamli xromatografiya usuli bilan tekshirildi va kalonkali xromatografiya usulida bir biridan ajratib olindi. Sintez qilingan N`-metilol-N(1`-karboksi) ferrotsenilkarboksamidning tuzilishi IQ spektri yordamida o`rganildi. Spekrning 1157 va 1029 sm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziq-lari geteroannulyar dialmashingan ferrotsenil guruhiga mansub, 2874 sm^{-1} da namoyon bo`luvchi C-H bog`lanishlarning mayatniksimon deformatsion tebranishlariga mos keluvchi yutilish sohalarining mavjudligi yaqqol ko`rinadi. 3600 sm^{-1} da yutilish chizig`i OH` guruh, 3360 sm^{-1} da valent tebranishli -NH- guruhlar mavjudligidan dalolat beradi. Sintez qilingan N`-metilol-N(1`-karboksi) ferrotsenilkarboksamidning mass spektrometrik usul yordamida molekulyar tuzilishi tahlil qilindi.

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamid sintezi. Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida ferrotsenkarbon kislota bilan tiomochevinani diazotirlash usuli bo`yicha 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamid sintezini amalga oshirdik. Sintez qilib olingan mahsulotning mumkin bo`lgan barcha izomerlarining strukturalari tuzildi. Ushbu izomerlarning strukturalarining sxemalari quyida keltirilgan.



1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning mumkin bo`lgan 1, 2, 3, 4, 5, 6 va 7 izomerlari modellari

Mahsulot (1) ning tuzilishi qaysi izomerga mos ekanligini aniqlash uchun mumkin bo`lgan izomerlarining optimallashtirilgan strukturalarini Hartri energiyalari hisoblandi va ular orasidagi farqlar aniqlandi. Hisoblash natijalari quyidagi jadvalda keltrilgan.


1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning mumkin bo'lgan izomerlarining strukturalarining Hartri energiyalari va ular orasidagi farqlar

| Modda | Izomerlar | EHart., kJ/mol | ΔE , (kJ) | Dipol momenti |
|--|-----------|----------------|-------------------|---------------|
| 1`-karboksi-ferrotsenil-tiokarboksamid | 1 | -2318,795 | 0 | 5,7849 |
| | 2 | -2312,595 | 6,200 | 5,0726 |
| | 3 | -2312,506 | 6,288 | 4,4729 |
| | 4 | -2312,507 | 6,288 | 4,3715 |
| | 5 | -2312,591 | 6,204 | 5,1579 |
| | 6 | -2312,592 | 6,203 | 3,9355 |
| | 7 | -2312,553 | 6,241 | 5,3208 |

Hisoblash natijalari 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning **1, 2, 3, 4, 5, 6** va **7** izomerlari orasidan birinchi izomerining energiyasi boshqalarga nisbatan sezilarli darajada kichik ekanligini ko'rsatdi. Demak, moddaning birinchi izomeri boshqalariga nisbatan energetik jihatdan termodinamik barqaror. Shunga asosan ferrotsenkarbon kislotaning tiomochevina bilan reaksiyasining asosiy mahsuloti, tuzilishi jihatdan birinchi strukturaga mos keladi deb xulosa qilish mumkin.


Reaksiya mahsulotlarini dastlab yuqqa qatlamli xromatografiya usuli bilan tekshirildi va ustunli xromatografiya yordamida ajratildi. Birikmani qo'shimcha moddalardan tozalash uchun mahsulotni dietilefir benzol 2:1 nisbatdagi eritmasidan elyuent sifatida foydalanib xromatografiya qilindi. Asosiy modda 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning chiqish unumi 65 % ni tashkil etdi.

Sintez qilingan birikmani molekulyar tuzilishini aniqlash uchun ularni infraqizil spektrlari va mass-spektrlari o'lchanib tahlil qilindi. 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning IQ-spektridagi tajribada kuzatilgan yutilish cho'qqilari to'liq soni qiymatlari molekuladagi tegishli tebranishlar uchun kvant-kimyoviy hisoblangan yutilish sohalari maksumumi to'liq soni qiymatlari natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Natijalar tahlilidan 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning tajribada o'lchangan IQ-spektridagi yutilish sohalari to'liq sonlari qiymatlari biz tahmin qilgan tuzilishli molekula uchun kvant-kimyoviy hisoblangan qiymatlarga mos kelishi ma'lum bo'ldi. IQ-spektrning 1158 va 1029 cm^{-1} sohalarida yutilish chiziqlari geteroannulyar dialmashigan ferrotsenil guruhiga mansub, 914 cm^{-1} sohada yutilish chiziqlari ferrotsen qoldig'iga almashigan pentadienil halqa borligidan, 1650 cm^{-1} dagi yutilish chizig'i valent tebranishli COOH, 1414 cm^{-1} yutilish chizig'i -C(S)-guruhning, 2628-2679 cm^{-1} dagi yutilish chizig'i birinchi siklopentadienil xalqadagi (-C-H) bog'ining valent tebranishi, 3670 cm^{-1} yutilish chizig'idagi simmetrik deformatsion tebranishi (NH₂) guruhdagi (-N-H), 3385 cm^{-1} dagi yutilish chizig'i deformatsion tebranishli (OH) guruhining mavjudligidan dalolat beradi. Sintez qilingan birikmani IQ-spektri 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning IQ-spektri

Sintez qilib olingan 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning tajribada kuzatilgan yutilish cho`qqilari to`lqin soni qiymatlarini taqqoslash uchun kvant kimyoviy hisoblangan IQ-spektri olindi.




2-rasm. 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning hisoblab optimallashtirilgan molekulyar strukturasi.

2-rasmda Gaussian 98 dasturi yordamida optimallashtirilgan 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning molekulyar tuzilishi ko`rsatilgan.


1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning IQ-spektrida tajribada kuzatilgan cho`qqilar to`lqin soni va molekula turli izomerlarining tegishli tebranishga mos keluvchi soxasi maksimumi to`lqin sonining hisoblangan qiymatlari sm^{-1}

| № | Tebranish turi | Yutilish soxasi maksimumi to`lqin soni, sm^{-1} | | | | | | | O`lchangan |
|-----|-------------------------------|--|------|------|------|------|------|------|------------|
| | | Hisoblangan | | | | | | | |
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | |
| 1. | Fc $\nu(\text{CCC})$ | 382 | 375 | 380 | 381 | 381 | 431 | 380 | 386 |
| 2. | Fc $\nu(\text{C-Fe})$ | 429 | 421 | 447 | 449 | 420 | 445 | 417 | 425 |
| 3. | $\nu(\text{NH})$ | 481 | 458 | 456 | 457 | 457 | 490 | 457 | 480 |
| 4. | Fc $\nu(\text{CCC})$ | 511 | 516 | 500 | 500 | 515 | 522 | 518 | 509 |
| 5. | Fc $\nu(\text{CCC})$ | 561 | 564 | 568 | 569 | 561 | 560 | 539 | 563 |
| 6. | $\nu(\text{COOH})$ | 597 | 618 | 705 | 602 | 616 | 623 | 582 | 598 |
| 7. | $\nu\text{Cp}(\text{CH})$ | 740 | 739 | 739 | 740 | 727 | 743 | 736 | 740 |
| 8. | $\delta\text{Cp}(\text{CH})$ | 783 | 780 | 777 | 787 | 779 | 792 | 786 | 783 |
| 9. | s $\nu\text{Cp}2(\text{CH})$ | 838 | 848 | 845 | 842 | 816 | 823 | 812 | 834 |
| 10. | $\nu\text{Cp}2(\text{CH})$ | 914 | 915 | 915 | 921 | 914 | 917 | 897 | 914 |
| 11. | $\delta\text{Cp}(\text{CC})$ | 939 | 958 | 957 | 959 | 957 | 943 | 927 | 935 |
| 12. | $\delta\text{Cp}2(\text{CC})$ | 1053 | 1035 | 1042 | 1028 | 1037 | 1043 | 1036 | 1052 |
| 13. | $\nu\text{sp}(\text{CH})$ | 1108 | 1123 | 1121 | 1123 | 1123 | 1097 | 1138 | 1108 |
| 14. | s $\nu(\text{NH})$ | 1157 | 1171 | 1171 | 1172 | 1171 | 1157 | 1159 | 1157 |
| 15. | $\nu\text{Cp}2(\text{CH})$ | 1213 | 1199 | 1193 | 1196 | 1193 | 1196 | 1192 | 1220 |
| 16. | s $\nu\text{Cp}1(\text{CH})$ | 1277 | 1255 | 1273 | 1257 | 1254 | 1274 | 1262 | 1281 |
| 17. | $\delta(\text{C-S})$ | 1412 | 1485 | 1400 | 1477 | 1416 | 1501 | 148 | 1414 |
| 18. | as $\nu \delta(\text{CO})$ | 1651 | 1595 | 1593 | 1597 | 1594 | 1591 | 1593 | 1650 |
| 19. | $\delta(\text{OH})$ | 3370 | 3418 | 3418 | 3418 | 3400 | 3400 | 3408 | 3385 |
| 20. | $\delta\text{Cp}(\text{NH})$ | 3681 | 3737 | 3734 | 3735 | 3738 | 3737 | 3738 | 3670 |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning tajribada olingan spektrdagi yutilish sohalari to`lqin sonlari, kvant-kimyoviy hisoblash natijasida olingan spektrdagi yutilish sohalari to`lqin sonlariga mos kelishini tasdiqlaydi.



3-rasm. 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning Mass-spektri



1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning Mass-spektrda hosil bo`lgan fragmentlar

Mass-spektrda hosil bo`lgan fragmentlarning m/z qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning Mass-spektrometrik ko`rsatkichlari

| № | Fragmentlar | m/z | Nisbiy intensivlik % |
|----|--------------------------------|-----|----------------------|
| 1. | $(C_5H_4)_2FeCO + H^+$ | 213 | 100% |
| 2. | $(C_5H_4)_2FeCOOHCSNH_2 + H^+$ | 290 | 70% |
| 3. | $[(C_5H_4)_2FeCOCS]_2 2H^+$ | 514 | 50% |
| 4. | $(C_5H_4)C_5H_5FeCOOH$ | 230 | 42% |
| 5. | $(C_5H_5)_2Fe + H^+$ | 185 | 25% |

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning suvda eruvchan hosilalari sintezi. Ferrotsenkarbon kislota asosida yangi biologik faol moddalar sintez qilish va ularni suvda eruvchan hosilalarini olish, amaliyotga joriy etish kabi tadqiqotlarni davom ettirish maqsadida 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilokarboksamid, N`-metilol-N(1`-karboksi)ferrotsenilkarboksamid va 1`-karboksi-ferrotseniltiokarboksamid larning suvda eruvchan kaliyli va natriyli tuzlarini olishga erishdik. Chunki o`simliklar ildizdan oziqlanish, moddalarning ko`chirilishi va to`planishi kabi kimyoviy jarayonlarni suvli eritma orqali amalga oshiradi.


1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning natriy va kaliyli hosilalari suvda yaxshi eriydi. 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning natriyli tuzi sintezi:

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidni 0,289 g (0,001 mol) tortib olib, chinni kosachaga solindi. 0,084 g natriy gidrokarbonat (0,001 mol) 10 ml suvda eritib olib chinni kosachadagi 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamid ustiga oz-ozdan tomchilatib qo`shib eritildi. Erish jarayonida gaz ajralib chiqdi. Hosil bo`lgan eritmani 50 ml dietilefir solingan stakanga quyildi. Ajralib tushgan cho`kmani filtrlab, etil efir bilan yuvib quritildi. Sariq rangli amorf modda olindi. Unum-0,255 g (82 % - dastlabki moddaga nisbatan). T.s. = 284-285°C.

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidni kaliyli tuzi yuqoridagi usullar yordamida KHCO₃ eritmasini ta`sir ettirib olindi.

1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidni kaliyli tuzi tashqi ko`rinishi sariq tusli amorf modda. Suvda yaxshi eriydi. Unum-0,255 g (78 %). T.s.= 290-292°C.

Sintez quyidagi umumiy sxema bo`yicha olib borildi:



M- Na, K

Ferrotsenkarbon kislota asosida sintez qilingan yangi birikmalarning suvda eruvchan hosilalarni biologik faolligi Andijon davlat universiteti "Tovarlar kimyosi" ilmiy tadqiqot laboratoriyasida sinovlardan o`tkazildi.

Sintez qilingan, 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilokarboksamid, N`-metilol-N(1`-karboksi)ferrotsenilkarboksamid, 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidlar ning suvda eruvchan natriyli, kaliyli tuzlari orasidan biostimulyatorlik xossasini namoyon qilishi mumkin bo`lganlarini ajratib olish uchun moddalarning 0,01, 0,001 va 0,0001 foizli suvli eritmalaridan foydalanildi. Chigitning unish energiyasiga va unuvchanligiga eritmalarining ta`siri laboratoriya sharoitida tekshirildi. Etalon sifatida Rossiyada ishlab chiqarilgan MIVAL va qahrabo kislotalarini 0,0001 foizli eritmaları va nazorat uchun distillangan suvga taqqoslab o`rganildi.

Har bir eritmaning biologik faolligini aks ettiruvchi o`rtacha natija 5 ta (100 donadan chigit) parallel tajribalar asosida olindi. Eksperimentning standart chetlanishi va 95 foizli ishonchlilik chegarasidagi tasodifiy xatosi eng kichik kvadratlar usulida baholandi. Tajriba bir hafta muddat oralig`ida amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda o`tkazilgan laboratoriya tahlillarining o`rtacha olingan natijalari keltirilgan.

Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini laboratoriya sharoitida o'rganish natijalari

| Variant № | Preparat | Eritma konts-si % | O'rtacha qiymat | Unuvchanlik, % | |
|-----------|-----------------------------|-------------------|-----------------|--------------------|-------------------|
| | | | | Chetlanish | |
| | | | | Nazoratga nisbatan | Etalonga nisbatan |
| 1. | $C_{12}H_{10}FeKO_2NS$ | 0,01 | 92±2,0 | +3 | +2 |
| | | 0,001 | 94±1,6 | +5 | +3 |
| | | 0,0001 | 97±1,5 | +8 | +4 |
| 2. | $C_{12}H_{10}FeNaO_2NS$ | 0,01 | 90±2,0 | +1 | 0 |
| | | 0,001 | 90±1,7 | +1 | -1 |
| | | 0,0001 | 91±1,5 | +2 | -2 |
| 3. | $C_{13}H_{12}FeO_4NK$ | 0,01 | 92±1,3 | +3 | +2 |
| | | 0,001 | 93±1,5 | +4 | +2 |
| | | 0,0001 | 94±1,8 | +5 | +1 |
| 4. | $C_{13}H_{12}FeO_4NNa$ | 0,01 | 90±1,2 | +1 | 0 |
| | | 0,001 | 92±2,0 | +3 | +1 |
| | | 0,0001 | 92±1,6 | +3 | -1 |
| 5. | $C_{14}H_{15}FeO_4N_2K$ | 0,01 | 91±1,5 | +2 | +1 |
| | | 0,001 | 93±1,8 | +4 | +2 |
| | | 0,0001 | 94±1,3 | +5 | +1 |
| 6. | $C_{14}H_{15}FeO_4N_2Na$ | 0,01 | 90±1,2 | +1 | 0 |
| | | 0,001 | 91±2,0 | +2 | 0 |
| | | 0,0001 | 92±1,6 | +3 | -1 |
| 7. | Qaxrabo kislota (etalon) | 0,01 | 90±1,8 | +1 | 0 |
| | | 0,001 | 91±1,7 | +2 | 0 |
| | | 0,0001 | 93±1,9 | +4 | 0 |
| 8. | Nazorat- H_2O | - | 89±1,8 | 0 | -4 |

*Tajriba xatoligi ±2 % dan oshmaydi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning $C_{12}H_{10}FeKO_2NS$ kaliyli tuzining 0,001 % li va 0,0001% li eritmaları bilan ishlov berilgan chigitlarning unuvchanligi etalon va taqqoslash uchun olingan suv bilan ishlov berilgan urug'larga nisbatan 6-7 % yuqori bo'lgan.

Olingan natijalarni xisobga olgan holda 1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamidning kaliyli tuzining biostimulyatorlik xossasini nomoyon qilganligi isbotlandi, Ushbu moddaga AsTA shartli nomi berildi.

Sintez qilingan birikmalar orasidan biostimulyatorlik hususiyati yuqori bo'lgan shartli ravishda AsTA nomi berilgan preparatni hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan biostimulyatorlar, Rossiyada ishlab chiqarilgan "MIVAL", O'zbekistonda ishlab chiqilgan Ferrostimulyator-1, "ADUMAX", "AsXOAK", "MAKSIT", "ARIK" biostimulyatorlari bilan taqqoslandi. (5-jadval)

AsTA biostimulyatorining laboratoriya sharoitida chigitning unish energiyasi va unuvchanligiga ta'sirini o'rganish natijalari

| Variant№ | Preparat nomi | Eritma kontsentratsiyasi, % | Unish energiyasi, % | | | Unuvchanlik, % | | |
|----------|----------------------------|-----------------------------|---------------------|--------------------|-------------------|----------------|-----------|-----------|
| | | | O'rtacha qiymat | Chetlanish | | | | |
| | | | | Nazoratga nisbatan | Etalonga nisbatan | | | |
| 1. | Ferrostimulyator-1 | 0,0001 | 81±2,3 | +2 | -4 | 90±2,1 | +1 | -2 |
| 2. | ADUMAX | 0,0001 | 86±2,2 | +7 | +1 | 93±2,0 | +4 | +1 |
| 3. | MAKSIT | 0,0001 | 87±2,2 | +8 | +2 | 94±2,0 | +5 | +2 |
| 4. | AsXOAK | 0,0001 | 86±2,1 | +7 | +1 | 91±1,9 | +3 | -1 |
| 5. | ARIK | 0,0001 | 84±2,1 | +5 | -1 | 90±1,9 | +1 | -2 |
| 6. | AsTA | 0,0001 | 90±2,0 | +11 | +5 | 97±1,5 | +8 | +5 |
| 7. | MIVAL (etalon) | 0,0001 | 85±2,3 | +6 | 0 | 92±2,1 | +3 | 0 |
| 8. | Nazorat – H ₂ O | - | 79±2,5 | 0 | -6 | 89±1,8 | 0 | -3 |

*Tajriba xatoligi ±2,1 % dan oshmaydi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra AsTA preparatining biostimulyatorlik faolligi eng yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Laboratoriya sharoitida boshqa biostimulyatorga nisbatan yuqori natija ko'rsatgan AsTA preparatining 0,0001% li eritmasi dala amaliyoti sinovlaridan o'tkazildi. Tajribalar Andijon viloyatining Marxamat tumanidagi "Bakirov To'lqinjon dalasi", "Abdualil Hoji dalalari", "Bunyodkor lyuks" Andijon tumanidagi "Abdug'ofir-Sherzodbek" fermer xo'jaliklari paxta maydonlarida 2019-2021 yillar davomida sinovlardan o'tkazildi.

Andijon viloyati fermer xo'jaliklarida 2019-2021 yillarda o'tkazilgan tajribalar asosida olingan o'rtacha natijalar

| № | Tajriba variantlari | Chigitlarni unib chiqishi% | Ko'chat qalinligi, ming/ga | Ko'saklar soni, dona | Ochilgan ko'saklar soni, dona | O'rtacha hosildorlik, s/ga |
|----|---------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------|-------------------------------|----------------------------|
| 1. | AsTA | 97,2 | 93,2 | 12,2 | 5,8 | 37 |
| 2. | Nazorat | 92,7 | 92,7 | 10,8 | 4,2 | 32 |
| 3. | Farq | 4,5 | 0,5 | 1,4 | 1,6 | 5 |

*Tajriba xatoligi ±2,3 % dan oshmaydi.

Andijon viloyatida 215 gektar g'o'za maydonlarida AsTA biostimulyatori qo'llanilganda, har gektar maydondan 2 425 000 so'm, jami 521 375 000 so'm iqtisodiy samaradorlikga erishildi.

Tovarlarning TIF TN kodlari to'g'ri belgilanishida mezon ko'rsatkichi sifatida tovarlarning kimyoviy tarkibi asos qilingan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan taklif etilgan "Tovarlarning kimyosi" fani tovarlar kimyosining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tovarlarning TIF TN ga tegishli 10 raqamli xalqaro kod raqamiga mos kelishini belgilovchi mezoniy ko'rsatkichlar ko'p

tovarlar uchun mukammal emas va ko‘plab mamlakatlarda shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tovarlarining xalqaro kod raqamlarini aniqlash ularning kimyoviy tarkibi, olinishining texnologik jarayonlari, eksport yoki import qilinayotgan tovarlarning sifatini nazorat qilish, ularga sifat va boshqa sertifikatlar berish masalalarini ilmiy-tadqiqotlar natijalariga muvofiq asoslash imkonini yaratadi.

Tovarlarining kimyoviy tarkibi asosida sinflashni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Birgina misol, 2022 yil 8 oyi mobaynida tovarlarning kimyoviy tarkiblarini yoki xususiyatlarini o‘rganish orqali 6505 ta bojxona ekspertizalari o‘tkazilib, davlat byudjetiga qo‘shimcha tarzda 51,97 mlrd so‘m qo‘shimcha mablag‘lar undirildi.

“Tovarlar kimyosi” ixtisosligi doirasida ilmiy izlanishlar olib borish va bojxona ekspertizasini o‘tkazish orqali davlat byudjetiga qo‘shimcha tarzda mablag‘lar undirilishi ixtisoslikning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Biz tomonimizdan sintez qilingan, ferrotsenkarbon kislotaning suvda eruvchan hosilalarini kimyoviy tarkibi asosida sinflab, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha kod raqamlari berilishi maqsadga muvofiqdir. Taklif etilayotgan TIF TN tovar kod raqami **380893900 7** ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi bojxona amaliyotiga joriy etildi.

7-jadval

Taklif etilayotgan TIF TN tovar kod

| Taklif etilayotgan TIF TN tovar kod | | | |
|-------------------------------------|--|----------------------|---|
| TIF TN kod | Pozitsiyaga izoh | TIF TN kod | Pozitsiyaga izoh |
| 3808 93 | – – gerbidtsidlar, o‘simliklarning o‘shini to‘xtatuvchi va o‘stiruvchi vositalar | 3808 93 | – – |
| | – – – o‘stiruvchi vositalar | 3808 93 900 0 | – – – o‘stiruvchi vositalar |
| 3808 93 900 0 | – – – o‘stiruvchi vositalar | 3808 93 900 7 | – – – ferrotsenkarbon kislotasi va tiomochevina asosida sintez qilingan biostimulyatorlar |

O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasi, Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan amaliyotga joriy etish bo‘yicha ma’lumotnoma (30.07.2022 16/05-22-0432) rasmiylashtirildi.

Dissertatsiyaning **“ferrotsenkarbon kislotaning ayrim almashingan hosilalarini olinishi va ularning biologik faolligini o‘rganish (eksperimental qism)”** deb nomlangan uchunchi bobida ferrotsenkarbon kislotani mochevina hosilalarini diazotirlash reaksiyasi asosida 1`-karboksiferrotsen-N-metilol karboksamid, N`-metilol-N (1`-karboksi ferrotsenil karboksamid), 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamid va ularning suvda eruvchan hosilalarini olinish usullari, ajratib olingan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini aniqlash, fermer xo‘jaliklari paxta maydonlarida o‘tkazilgan dala amaliyot tajribalari bayoni keltirilgan.

XULOSALAR

“Ferrotsenkarbon kislota asosida yangi tovarlar olish va ularni sinflash” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor ferrotsenkarbon kislolaning mochevina hosilalari bilan diazotirlash reaksiyasi asosida 9 ta yangi modda sintez qilingan. Olingan moddalarning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari preparativ analiz usullari yordamida aniqlangan.

2. Diazotirlash reaksiyasi orqali olingan 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilokarboksamid, N`-metilol-N (1`-karboksi ferrotsenil karboksamid), 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidlarning tuzilishi IQ-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari shuningdek kvant-kimyoviy hisoblash natijalari yordamida aniqlangan.

3. Ferrotsenkarbon kislota va mochevina hosilalari asosida sintez qilingan 1`-karboksi(ferrotsenil-1)-N-metilokarboksamid, N`-metilol-N (1`-karboksi ferrotsenilkarboksamid), 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidlarning suvda eruvchan hosilalari olingan.

4. Ularning orasidan ferrotsenkarbon kislota va tiomochevina asosida olingan 1`-karboksiferrotseniltiokarboksamidning suvda eruvchan kaliyli hosilasi eng yuqori biologik faollik namoyon qilishi aniqlangan va shu birikma asosida AsTA nomli yangi biostimulyator ishlab chiqilgan.

5. AsTA biostimulyatorini qo‘llash texnologiyasi 2019-2021 yillar davomida Andijon viloyatining bir qator fermer xo‘jaliklarida Andijon-35 va Andijon-36 g‘oza navlarida 215 gektar maydonlarida dala sinovlaridan o‘tkazilishi paxta hosildorligini o‘rtacha 4,85 s/ga oshirishga olib kelishi isbotlangan.

6. AsTA biostimulyatorini Marxamat tumanidagi “Bakirov To‘lqinjon dalasi”, “Abdujalil Hoji dalalari”, “Bunyodkor lyuks”, Andijon tumanidagi “Abdug‘ofir-Sherzodbek” nomli fermer xo‘jaliklarining paxta dala maydonlarida amaliyotida qo‘llash natijasida, har gektar maydondan 2 425 000 so‘m, jami 521 375 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

7. AsTA, biostimulyatori kimyoviy tarkibi asosida sinflanib, “Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi” ga ferrotsenkarbon kislota va tiomochevina hosilalari asosida olingan biostimulyatorlar” uchun 380893900 7 kod raqami bojxona amaliyotiga joriy qilingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУРАИМОВ ЗУХРИТДИН ХОЛБОВИЧ

**ПОЛУЧЕНИЕ НОВЫХ ТОВАРОВ НА ОСНОВЕ
ФЕРРОЦЕНКАРБОНОВОЙ КИСЛОТЫ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ**

02.00.09 – Химия товаров

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PHD/K610.

Диссертация выполнена в Андижанском Государственном Университете
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме) размещён на веб-странице Научного совета (www.adu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: Аскарлов Иброхим Рахмонович
Доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Ахмадалиев Махамаджон Ахмадалиевич
доктор технических наук, профессор

Хамрокулов Махмуджон Гофуржонович
доктор философии (PhD) химических наук, доцент

Ведущая организация: Кокандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится в 10⁰⁰ часов 06 V 2023 года на заседании Научного совета по присуждению научных степеней DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском Государственном университете. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Университетская 129. Тел: (99874) 223-88-30, факс: (99874) 223-84-33

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно - ресурсном центре Андижанского Государственного Университета (зарегистрирована за №). (Адрес: 100174, г. Андижан, улица Университетская 129. Тел: (99874) 223-88-30, факс: (99874) 223-84-33

e-mail: abduraimov_zuxritdin1984@mail.ru

Автореферат диссертации разослан « 14 » IV 2023 года.
(протокол реестра рассылки № 16 от « 17 » IV 2023 года).



Х.Исаков

Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, доктор технических наук, профессор

М.М.Муминжонов

Член секретарь Научного совета по присуждению научных степеней, доктор химических наук

Ш.В. Абдуллаев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире большое внимание уделяется синтезу химических соединений, положительно влияющих на рост и развитие сельскохозяйственных культур, увеличению сфер их влияния. В связи с этим особое внимание уделяется разработке биологически активных и экологически чистых биостимуляторов, содержащего железо, обладающего свойством повышать урожайность сельскохозяйственных культур. В связи с этим одной из важных задач является синтез новых биологически активных веществ, содержащих ферроцен, отвечающих современным требованиям и их практическое применение.

Во всём мире ведутся исследования по синтезу биологически активных веществ, содержащих ферроцен и глицирризиновую кислоту, обеспечивающих комплексное развитие растений. В связи с этим особое внимание уделено синтезу, составу, строению и биологической активности ферроценбензойных кислот, ферроценкарбоновых кислот и их солей, обладающих биостимулирующими свойствами, усиливающими рост и комплексное развитие растений и птицы. Исходя из этого синтез ферроценовых соединений, содержащих каталитически усиливающие ароматические бензольные и циклопентадиенильные кольца, окси- и карбоксифенильные заместители ферроцена, определение их химического состава и строения, биологической активности и классификация согласно номенклатуры товаров во внешнеэкономической деятельности на основе химического состава имеет большое практическое значение.

В нашей Республике проводятся целенаправленные реформы по созданию новых видов биостимуляторов, используемых в производстве сельскохозяйственной продукции и внедрению новых инновационных технологий в их производство. В стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи² «увеличения предложения на рынках продовольственных и непродовольственных товаров и устранения сезонного дефицита». Исходя из этих задач, синтез экологически чистых, безвредных биостимуляторов на основе ферроценкарбонной кислоты и производных мочевины, комплексно развивающих сельскохозяйственные культуры, повышают их продуктивность, а также определение их химического состава, структуры, свойств и внедрение на практику имеет большое научно-практическое значение.

Диссертационное исследование в определенной мере служить в исполнении задач, установленных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП -60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в УП -2884 от 12 апреля 2017 года

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

«О мерах по совершенствованию структуры управления АО «Узкимёсаноат», в УП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по ускоренному развитию химической промышленности в Республике Узбекистан» в УП-4265 от 3 апреля 2019 года «О дальнейшем реформировании химической промышленности и повышении ее инвестиционной привлекательности», в Законе Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года «О науке и научной деятельности» и в других нормативных правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.

Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики VII “Химические технологии и нанотехнологии”.

